



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://doi.org/10.30604/3060-4540)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 7

Published: 1.10.2024 <https://universaljurnal.uz>

International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)


ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF



**Yunusova L.K., Xaqulova M.SH.,
Maxkamova M. A., Tuychiyeva D.S.**

Andijon davlat universiteti
Genetika va biotexnologiya kafedrası
Uzbekistan

PESTISID NURELL Dni MOSH O'SIMLIGI HUYAYRALARINING AYRIM FERMENT FAOLLIKLARIGA TA'SIRINI O'RGANISH

Abstract: In the work, the effect of plant cells on certain enzyme activities was studied when treated with chemical agents used to protect moss plant seeds from pests.

1-day chilling of mash seeds with the pesticide Nurel D resulted in a decrease in peroxidase activity, in which a significant decrease in peroxidase activity was observed. The highest reduction was observed on day 7 by 62% in Marjan cultivar and 66% in Durдона cultivar on day 3 compared to control. When the catalase enzyme activity was studied, it was observed that the effect of Nurel D on the enzyme activity of the pesticide was different, the activity increased and then decreased in the 3-day lawns. Based on the data in the literature and experimental results, it can be shown that the studied pesticides have different effects on the process of lipid peroxidation in the germ cells of seeds, increasing the activity of catalase enzyme, and reducing the process of lipid peroxidation.

Key words: Mosh, Coral, Durдона, seed, tumor, pesticide, Nurel D, enzyme, peroxidase, catalase.

Annotatsiya: Ishda mosh o'simligi urug'larini zararkunandalardan himoya qilish uchun foydalaniladigan kimyoviy vositalar bilan ishlov berilganda o'simlik hujayralarining ayrim ferment faolliklariga ta'siri o'rganildi.

Mosh urug'larini pestitsid Nurel D bilan 1 kunlik ivitish peroksidaza faolligining pasayishiga olib keldi, bunda peroksidaza faolligining sezilarli darajada pasayishi kuzatildi. Eng yuqori pasayish 7-kuni nazorat bilan solishtirganda Marjon navida 62% ga va Durdona navida 3-kunda 66% ko'rildi. Katalaza fermenti faolligi o'rganilganda pestitsidni ferment faolligiga Nurel D ta'siri turlicha bo'lishi, 3-kunik maysalarda faollik oshib, so'ng pasayishi kuzatildi. Adabiyotdagi ma'lumotlar va eksperimental natijalar asosida shuni ko'rsatish mumkinki, o'rganilgan pestitsidlar urug'larning murtak hujayralarida lipid peroksidlanish jarayoniga turlicha ta'sir qiladi, katalaza fermenti faolligini oshiradi, lipidlarning peroksidlanishi jarayonni kamaytiradi.

Kalit so'zlar: Mosh, Marjon, Durdona, urug', o'simta, pestitsid, Nurel D, ferment, peroksidaza, katalaza.

Аннотация: В работе изучено влияние активности некоторых ферментов растительных клеток на обработку семян моховых растений химическими препаратами, применяемыми для их защиты от вредителей.

Однодневное замачивание семян мша пестицидом Нурел Д привело к снижению активности пероксидазы, при этом наблюдалось значительное снижение активности пероксидазы. Наибольшее снижение наблюдалось на 7-й день на 62% у сорта Марьян и на 66% у сорта Дурдона на 3-й день по сравнению с контролем. При изучении активности фермента каталазы было отмечено, что влияние Нурела Д на ферментативную активность пестицида было различным, активность повышалась, а затем снижалась на 3-дневных газонах. На основании данных литературы и результатов экспериментов можно показать, что изученные пестициды по-разному влияют на процесс перекисного окисления липидов в мембранных клетках семян, повышают активность фермента каталазы, а перекисное окисление липидов снижает процесс.

Ключевые слова: Мош, Корал, Дурдона, семя, опухоль, пестицид, Нурел Д, фермент, пероксидаза, каталаза.

Language: Uzbek

Citation: Yunusova L.K., Y. L., Haqulova M.SH, X. M., Maxkamova M. A, M. M. A., & Tuychiyeva D.S, T. D. STUDY OF THE EFFECT OF THE PESTICIDE NURELL D ON CERTAIN ENZYME ACTIVITIES OF MOSS PLANT CELLS. Universal International Scientific Journal, 1(7), 10–13. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1151>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13969933>

Urug'larning tinim holatini shakllanishi donlarga xos bo'lgan adaptiv xususiyat bo'lib, uni amalga oshirishda ularning majburiy tinim holatida omon qolishini ta'minlaydigan maxsus tizimlar ishtirok etadi. Shu bilan birga, antioksidant tizim tarkibiy qismlarining faolligi tufayli donlarning hayotchanligi saqlanib qoladi. Ushbu tizimning yetakchi bo'g'ini peroksidaza bo'lib, uning faolligi

urug'larning unib chiqishi paytida keskin oshadi, ammo sun'iy gipobiyoz sharoitida urug'larning suvda uzoq vaqt turishi natijasida ularda antioksidantlar tarkibining ko'payishini va peroksidaza faolligining pasayishi ko'rsatadi. Shuningdek, o'rganilgan pestitsidlar urug'larning murtak hujayralarida lipid peroksidlanish jarayoniga turlicha ta'sir qiladi, katalaza fermenti faolligini oshiradi, lipidlarning peroksidlanishi jarayonni kamaytiradi.

Tajribalarimizda pestitsid - Nurell Dni loviya urug'larining turli unib chiqish davrlarida peroksidaza va katalaza fermentlari faolliklariga ta'siri o'rganildi.

Tajribalarda moshning ikki navi – Durdon va Marjon navlari urug'idan foydalanildi. Bu navlarning urug'lari Nurell D pestitsidining 10% eritmasida bir kun davomida ivitilgan. Peroksidaza fermentining faolligi ko'chatlarda bir kunlik ivitishdan keyin unib chiqishning 3, 5 va 7-kunlarida aniqlandi. Nazoratdagi urug'lar distillangan suvda ivitildi.

Mosh urug'larida o'tkazilgan tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, mosh urug'ini pestitsid Nurell D eritmasida ivitilganda Durdon va Marjon navlari urug' maysalarida peroksidaza fermenti faolligi unib chiqishning 3, 5 va 7-kunlari nazorat bilan solishtirganda mos ravishda Marjon navida 34% va 36%, 62% ga va Durdon navida 66%, 49% va 51% ga pasayishi kuzatildi.

Ko'chatlarda peroksidaza fermenti faolligining har xil tabiati o'rganilayotgan preparatlar ta'sirida antioksidant tizimning turli darajadagi inaktivatsiyasi bilan bog'liq. Urug'larni dorilash natijasida kelib chiqqan kislorodning aktiv formalari (KAF) hosil bo'lish intensivligining o'zgarishi, shuningdek antioksidant fermentlarning faollashishi (bu holda peroksidaza) tizimli orttirilgan barqarorlikning shakllanishiga olib kelishi mumkin [1].

Tadqiqotlar natijasida, mosh urug'larini pestitsidlar Nurell D bilan 1 kunlik ivitish peroksidaza faolligining pasayishiga olib keladi, bunda Nurell D ta'sirida peroksidaza faolligining sezilarli darajada pasayishi kuzatildi.

Shunday qilib, mosh o'simliklarini kasallik va zararkunandalardan himoya qilish uchun ishlatiladigan pestitsidlar antioksidant fermentlar faolligini pasayishiga olib keldi, bu esa o'z navbatida o'simliklar urug'lari va ko'chatlarining unib chiqishi va rivojlanishining kechikishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, tinim holatining shakllanishi donlarga xos bo'lgan adaptiv xususiyat bo'lib, uni amalga oshirishda ularning majburiy tinim holatida omon qolishini ta'minlaydigan maxsus tizimlar ishtirok etadi. Shu bilan birga, antioksidant tizim tarkibiy qismlarining faolligi tufayli donlarning hayotchanligi saqlanib qoladi. Ushbu tizimning yetakchi bo'g'ini peroksidaza bo'lib, uning faolligi urug'larning unib chiqishi paytida keskin oshadi, ammo sun'iy gipobiyoz sharoitida urug'larning suvda uzoq vaqt turishi natijasida ularda antioksidantlar tarkibining ko'payishini va peroksidaza faolligining pasayishi ko'rsatadi.

Navbatdagi tajribalarda mosh urug'iga Nurell D ta'sirida katalaza fermentining faolligi o'rganildi. Katalaza - oksidoreduktazalar sinfiga mansub ferment. Vodород peroksid (H_2O_2)ning suv (H_2O) bilan kislorod (O_2)ga parchalanishini katalizlaydi. Katalaza barcha hayvon va o'simliklar to'qimalarida, asosan, sut emizuvchilar jigari va eritrotsitlarida hamda aerob mikroorganizmlarda mavjud. Katalazaning biologik funksiyasi to'qima membranalarini H_2O_2 dan, superoksiddismutaza bilan birgalikda esa superoksid radikalidan himoya qilishdir. [2].

Urug'larning unib chiqishida sodir bo'ladigan fiziologik va biokimyoviy

jarayonlarning intensivligi donning fermentativ kompleksining faolligiga va atrof-muhit sharoitlariga bog'liq. Niholning asosiy xususiyati va uning biokimyoviy yo'nalishi - endosperm va kotiledonlardagi yuqori molekulyar og'irlikdagi moddalarning eruvchan past molekulyar og'irlikdagi moddalarga bo'linishi, namlik ishtirokida va fermentlar ta'sirida sodir bo'ladi [3].

Fermentlar faolligi va o'ziga xosligi turli omillarga, substrat konsentratsiyasiga, muhitning faol kislotaligiga (pH) va haroratga bog'liq. Fermentlar kislotalar, ishqorlar, issiqlik va og'ir metallarning tuzlariga sezgir. Hujayrada istalgan vaqtda mavjud bo'lgan ferment miqdori nafaqat ularning sintezi va parchalanishining nisbiy tezligi, balki har xil turdagi aktivatorlar va ingibitorlar konsentratsiyalar bilan ham belgilanadi [4,5].

Navbatdagi tajribalarda mosh urug'larining unib chiqishi va o'sishining turli davrlarida lipidlarning peroksidlanish jarayonida ishtirok etuvchi katalaza fermenti faolligiga pestitsidlarning ta'sirini o'rgandik.

Mosh urug'larida o'tkazilgan tajriba natijalari shuni ko'rsatadiki, mosh o'simligini

Marjon navi urug' maysalarida pestitsid Nurel pestitsidi ta'sirida ferment faolligi 7,2%ga paygani, 5-kunda 1,6% ortishi va 7-kunda 26%ga pasayishi ko'rildi. Bu tajribada pestitsidlarni ferment faolligiga ta'siri turlicha bo'ldi, 3-kunlik maysalarda past bo'lib, 5-kunga kelib Nurelda avval ortishi va yana pasayishi kuzatildi.

Durdona navi urug'i Nurel ta'sirida 3-kunda faollik 2,7%ga ortdi, 5-kunda 7%ga, 7-kunda 6%ga kamayishi kuzatildi.

Shunday qilib, o'rganilgan Marjon va Durdona navlari urug'larida pestitsidga ivitilgandan keyin unishning 3-kunida pasayish, keyingi kunlarda esa katalaza fermenti faolligi oshishi kuzatilgan. Bu natija ba'zi adabiyot ma'lumotlariga mos keladi. E. Lemanning fikricha, katalaza faolligi unib chiqayotgan urug'larning nafas olish intensivligi bilan parallel ravishda ortadi, bu barcha hayotiy jarayonlar: oqsil, uglevod va lipid almashinuvini birlashtiradi [6].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Набеева Р. А. Влияние предпосевных обработок солями 1,3-аминосурьфидов и N,N-бис (диметиламинометил) – тиомочевинной на физиологи-биохимические процессы растений пшеницы//Дисс. на соискан. уч. степени к.б.н., Уфа, 2016, 162 с.
2. “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti T; 2001.
3. Обручева Н.В., Антипова О.В. Общность физиологических механизмов подготовки к прорастанию у семян с различным типом покоя // Физиология растений. — 1999. — Т. 46. — № 3. — С. 426-431.
4. Рогожин В.В. “Практикум по биологической химии”, М; 2006
5. Рогожина Т.В., Рогожин В.В. “Роль перекисного окисления липидов в прорастании зерновок пшеницы” Вестник Алтайского государственного аграрного университета, ст. 28-32, № 4, 2013 г.
6. Обручева Н.В., Антипина О.В. Физиология инициации прорастания семян.//Физиол. растений. — 1997. — Т. 44. — № 2. — С. 287-302. ta'siri// magistr akad. darajasini olish uchun yozgan dissert.,Andijon, 2017.